

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01. RAQAMLI ILMIY KENGASHI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

ABDIYEV BOBIR BOTIROVICH

KRIKETDA 15-16 YOSH O‘SMIR BOULERLARNI
(ULOQTIRUVCHILARNI) TO‘PNI ULOQTIRISH TEXNIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH

13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Chirchiq-2024

UO‘K: 796.358:012.575

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Abdiyev Bobir Botirovich

Kriketda 15-16 yosh o‘smir boulerlarni to‘pni uloqtirish texnikasini
takomillashtirish.....3

Абдиев Бобир Ботирович

Совершенствование техники подачи мяча у юных бoулеров 15-16 лет в крикете
.....29

Abdiev Bobir Botirovich

Improvement of ball bowling technique of young bowlers aged 15-16 in cricket.....57

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....61

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01. RAQAMLI ILMIY KENGASHI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

ABDIYEV BOBIR BOTIROVICH

KRIKETDA 15-16 YOSH O‘SMIR BOULERLARNI
(ULOQTIRUVCHILARNI) TO‘PNI ULOQTIRISH TEXNIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH

13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Chirchiq-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi namoyishi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.Phd/Ped3711 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.uzjtsiti.uz) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Matkarimov Rashid Masharipovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

To‘xtaboyev Nizomjon Tursunaliyevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Arziqulov Muqim O‘rolovich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil “___” “___” soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurgchilar ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370)-717-17-76, veb-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Madaniyat saroyi 2-qavat Konferensiyalar zali).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-79 faks: (0-370)-717-17-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____kuni tarqatilgan.

(2024-yil “___” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

F.A.Kerimov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

X.X.Qurbonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi,
p.f.b.f.d. (PhD)

O.J.Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
p.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Dunyoda kriket sport turi sohasidagi yetakchi olim va mutaxassislar tomonidan iste'dodli 15-16 yosh o'smir boulerlarning to'p uloqtirish texnikasini takomillashtirish asosida o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda mashg'ulot jarayonini tashkil etishga e'tibor berishmoqda. 15-16 yosh o'smir boulerlarni muvaffaqiyatga erishishlarining asosiy omillaridan biri sifatida texnik tayyorgarlik darajasini oshirish va tayyorgarlik turlari bo'yicha to'p uloqtirish texnikasini takomillashtirish tizimini samarali ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish masalasi muhimligicha qolmoqda. 15-16 yosh o'smir boulerlar to'p uloqtirish texnikasini takomillashtirishda zamonaviy vosita va uslublarni qo'llash hamda amaliyotga tatbiq etish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Jahonda yetuk mutaxassislar tomonidan 15-16 yosh o'smir boulerlarning to'p uloqtirish texnikasini bajarish jarayonlarini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish, mexanizmlarni tadqiq etish, o'quv-mashg'ulot jarayoni samaradorligini oshirish, maksimal texnik-taktik imkoniyatlarini kengaytirish hamda kriket sport turining malaka mezonlari va tayyorgarlik jarayonlarini to'p uloqtirish texnikasiga mos yo'naltirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O'smir boulerlarning to'p uloqtirish texnikasi hamda o'yin taktikasidan kelib chiqib ularning to'p uloqtirish texnikasi holati o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik ko'rsatkichlarini aniqlash va to'p uloqtirish texnikasi bajarilishini takomillashtirish bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. 15-16 yosh o'smir boulerlarning to'p uloqtirish texnikasini takomillashtirish asosida texnik tayyorgarlik darajasini oshirish masalalari yetarli darajada ishlab chiqilganligiga qaramay, o'quv-mashg'ulot bosqichida musobaqa faoliyatining asoslaridan birini tashkil etuvchi to'p uloqtirish texnikasi ko'rsatkichlarini takomillashtirish yuzasidan ko'plab muammolarni hal etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Respublikamizda ommaviy sport turlaridan biri bo'lgan kriketning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilayotganligi va yurtimiz arenalarida kriketchilarimizning erishayotgan yutuqlar salmog'ining ortib borayotganligi, o'smirlar kriketini ommaviylashtirish hamda kriket sport turining yanada rivojlanib borishiga zamin yaratmoqda. "Mamlakatda yuksak madaniyatga ega bo'lgan har tomonlama yetuk hamda jismonan sog'lom insonni shakllantirish maqsadida, aholining jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarni belgilash, iqtidorli sportchilarni tanlab olish (seleksiya) jarayoniga innovatsion shakllar va usullarni joriy etish"¹ kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, 15-16 yoshdagi o'smir boulerlarning to'p uloqtirish texnikasini maqsadli takomillashtirish jarayonida qo'laniladigan ta'sirchan vositalarni saralash, texnik tayyorgarlik jarayonlarini rejalashtirish va zamonaviy boshqarish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ilg'or uslublarni va tajribaviy asoslarni ishlab chiqish masalalari bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu esa 15-16 yosh o'smir boulerlarning to'p uloqtirish texnikasini takomillashtirishni mashg'ulot jarayonlarida samarali tashkil etish, to'p uloqtirish texnikasi darajasini aniqlovchi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportning ommaviylikini takomillashtirish va ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

ishonchli testlarni ishlab chiqish, zamonaviy boshqarish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ilg'or o'quv-mashg'ulot metodikalarini ishlab chiqish masalalari dolzarbligicha qolmoqda hamda to'p uloqtirish texnikasini takomillashtirish maqsad bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'RQ-394-sonli qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-noyabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng joriy etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-sonli, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlarida shuningdek, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qilmoqda.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika va fan texnologiyalarini rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" bilan bog'liq ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda kriket jamoaviy sport turi sifatida izchil rivojlanib bormoqda. Kriket bo'yicha sport zaxirasini tayyorlash masalalarini ko'rib chiqayotganda, hozirgi kunga qadar turli malakali sportchilarni tayyorlash jarayonining tuzilishini belgilab beruvchi nazariy, ilmiy, uslubiy va amaliy materiallar yetarlicha boy to'planmaganligiga e'tibor qaratish lozim. Professor R.M.Matkarimov dissertatsiya ishida sport tayyorgarligi jarayonlarini tushunishni sezilarli darajada ilgari surgan. Uning tadqiqotlarida asosiy e'tibor sport tayyorgarligining ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan, shuningdek O.J.Dadaboyev, I.A.Koshbaxtiyev va B.B.Ibragimov² kabi yetakchi olimlar tomonidan yosh sportchilarni tayyorlashni rejalashtirishni optimallashtirish samaradorligi masalasi ko'rib chiqilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari mualliflaridan A.L.Ratianidze, E.L.Borisov, A.A.Tuzikov, A.V.Yeryomin³ kabilarning fikriga ko'ra, sport natijasi nafaqat sportchining har qanday jismoniy sifati, balki alohida jismoniy sifatlarni shakllantirishning ajralmas ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu tanlangan sport turida texnik va taktik harakatlarni shakllantirish uchun asos bo'lib, shuningdek, barcha pozitsiyalardagi o'yinchilarni individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tayyorlash zarurligini belgilaydi.

Xorijiy olimlar adabiyotlarini tahlil qilish yosh boulerlarlar mashg'ulotlariga

² Matkarimov R.M. Yuqori malakali og'ir atletikachilarni ko'p yillik tayyorgarligining ilmiy-nazariy asoslari. 13.00.04. - Jismoniy tarbiya v sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2022. – 235 b. Dadaboyev O.J., Koshbaxtiyev I.A. va Ibragimov B.B. Yosh sportchilarni yakkakurash sport turlari bo'yicha tayyorlashni rejalashtirishni optimallashtirish samaradorligi // Uzluksiz jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirishning dolzarb muammolari. – 2020. – B. 236-240.

³ Ratianidze A.L., Borisov E.L., Tuzikov A.A. Gandbol bo'yicha mashg'ulot jarayonining uslubiy asoslari/OZIBO'SSM. M.:2013. – 154 b. Yeremin A.V. Gandbol turi bo'yicha sport mashg'ulotlari dasturi. M.: 2019. – 46 b. Chetverikov D.V., Nemicheva A.O., Solodkov N.A., Borodin A.S. va b. "Gandbol" sport turi bo'yicha sport mashg'ulotlari dasturi, Stavropol, 2019 – 119 b.

individual yondashuv muhimligini ta'kidlaydi. A.J.Jonstoun; C.S.Endryu, Mitchell; Gervin, Xyuz; Tim, Uotson; A.Pol, Ford va T.Endryu, Garret,⁴ kabi mualliflarning ilmiy ishlarida, o'yin muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi asosiy fikrlarni ta'kidlab, to'pni uloqtirishning turli texnik jihatlarini muhokama qiladi. Ushbu ilmiy sharh samarali mashg'ulot dasturlarini shakllantirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan muhim ilmiy dalillarni taqdim etadi.

Ta'kidlab o'tilgan ma'lumotlarga ko'ra, kriketchilarni tayyorlashda 15-16 yoshli o'smir boulerlar (to'p uloqtiruvchilar) ning to'pni uloqtirish texnikasini takomillashtirish bo'yicha eksperimental mashg'ulot dasturini ishlab chiqish, o'yinchilarning mashg'ulotlar va musobaqa bosqichlarida tayyorgarlik darajasi juda dolzarb va muhim hisoblanadi va hozirda chuqurroq izlanishlarni talab qiladi. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, biz tadqiqotimiz uchun qo'yilgan muammo tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Dissertatsiya tadqiqotining bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqot institutining III/I "Sportda biomexanik tahlil va harakatlarni korrektsiyalashda fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar o'tkazish, ularning natijalarini amaliyotga joriy etish" yo'nalishi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi 15-16 yoshli o'smir boulerlarning to'p uloqtirish texnikasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kriket sport turida to'pni uloqtirish texnikasining tarkibiy qismlarini va yakuniy natijaga ta'sir qiladigan xarakterli xatolarni aniqlash;

kriketda to'p uloqtirish jarayonida turli to'p uloqtirish usullarini hamda tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladigan to'p uloqtirish texnikasining batafsil tasnifini ishlab chiqish;

15-16 yosh o'smir boulerlar (to'p uloqtiruvchilar)ning to'p uloqtirish texnikasini baholash uchun testlarni ishlab chiqish;

15-16 yosh o'smir boulerlar (to'p uloqtiruvchilar)ning to'p uloqtirish texnikasini takomillashtirishning yanada samarali metodikasiga ega mashg'ulot dasturini ishlab chiqish va eksperimental asoslab berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston kriket Federatsiyasining "Barlos" va "ANFA Cricket Club" jamoalari 15-16 yosh o'smir boulerlari (to'p uloqtiruvchilari)ning o'quv-mashg'ulot jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmetini kriketdagi 15-16 yoshli o'smir boulerlarning to'p uloqtirish texnikasini takomillashtirish bo'yicha qo'llanilgan vosita va usullar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, tibbiy-biologik usullar, pedagogik kuzatish, pedagogik test, pedagogik tajriba, matematik-statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

⁴ Andrew T. Garrett; Mitchell, C.S. Andrew; Hughes, Gerwyn; Watson, Tim; Ford, A. Paul; Johnstone, A. James. The Athletic Profile of Fast Bowling in Cricket: A Review. Journal of Strength and Conditioning Research 28(5), 2014: P. - 1465-1473.

15-16 yosh o'smir boulerlarning to'pni uloqtirish harakatini aniqlangan tarkibiy komponentlari asosida, to'pni uloqtirish texnikasidagi (yugurib kelishda tana muvozanatini yo'qotish, to'pni qo'yib yuborish burchagining optimal emasligi kabi) xarakterli xatolarini aniqlash evaziga harakatni bajarish jarayonini optimallashtirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

15-16 yosh o'smir boulerlar to'pni uloqtirish texnikasining tarkibiy qismlarini o'zida jamlagan viketga (darvozaga) to'pni uloqtirish texnikasining tarkibiy tuzilishi va tiplarining ishlab chiqilgan umumiy klassifikatsiyasi mashg'ulotlarda to'pni uloqtirish texnikasini variativ qo'llash imkoniyatlari oshirilgan;

yillik tayyorgarlikda o'smir boulerlarning to'p uloqtirish texnikasini baholash uchun ishlab chiqilgan testlarni bosqichli qo'llash orqali to'p uloqtirish texnikasini kompleks baholash imkoniyatlari kengaytirilgan;

ishlab chiqilgan eksperimental mashg'ulot dasturini qo'llash evaziga to'pni uloqtirish harakati tarkibiy komponentlarini (yugurish paytidagi koordinatsiyani, parvoz fazasida tananing muvozanatni saqlash, orqa oyoqqa qo'nish, oldingi oyoqni oldinga chiqarish, to'pni uloqtirishdagi o'qalishda, to'pni qo'yib yuborish burchagi) yakunlash bosqichida o'smir boulerlarning to'pni uloqtirish texnikasini takomillashtirish samaradorligi oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

pedagogik tajriba qatnashchilarining mashg'ulot jarayonini pedagogik kuzatuv va videotahlil yordamida 15-16 yosh o'smir boulerlarning to'p uloqtirish texnikasi tarkibiy qismlarini bajarishdagi xatolar aniqlangan;

aniqlangan to'p uloqtirish texnikasining tarkibiy qismlari va turli usullari asosida bouling (to'p uloqtirish) texnikasi tasnifi ishlab chiqilgan;

pedagogik tajriba boshi va oxirida 15-16 yosh o'smir boulerlarni texnikasini baholash uchun testlari ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan;

15-16 yosh o'smir boulerlarning to'p uloqtirish texnikasini takomillashtirishni yanada samarali metodikasiga ega ishlab chiqilgan eksperimental mashg'ulot dasturini tatbiq etish hisobiga pedagogik tajriba qatnashchilarining to'pni uloqtirish texnikasining testlar natijalari yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Eksperimental tadqiqot natijalarining ishonchliligi har tomonlama nazariy va uslubiy asosga, olib borilayotgan ilmiy ishlarning qat'iy mantiqiy tuzilishiga, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mahalliy va xorijiy olimlar va murabbiylarning fikrlarini tasdiqlash bilan belgilangan. Bundan tashqari, ishonchlik tadqiqot maqsadlariga mos keladigan, bir-birini to'ldiradigan va keng qamrovli tahlilni ta'minlaydigan usullardan foydalanish bilan qo'llab-quvvatlangan. Matematik va statistik usullar yordamida amalga oshirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish ham natijalarning ishonchliligini tasdiqlashga yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati 15-16 yoshli yosh boulerlarning to'pni uloqtirish texnikasini takomillashtirishga yo'naltirilgan eksperimental o'quv dasturini ishlab chiqishda, sportchilarni tayyorlash muammosini hal qilishning oqilona variantlarini hisobga olishda, jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlik darajasi hisobga olishda, sport

nazariyasiga tizimli yondashuv va asosiy gipotezalarni joriy etishda, 15-16 yoshli yosh boulerlar rivojlanishining “ustun” va “zaif” tomonlarini hisobga olish imkonini berishda ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati murabbiyning 15-16 yoshdagi o‘smir boulerlarning to‘pni uloqtirish texnikasini rivojlantirishining zarur darajasi to‘g‘risida bilimlarni o‘zlashtirish, ushbu sportchilar guruhining xususiyatlariga muvofiq uni takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlashda, shuningdek, belgilangan mezonlar asosida texnik va taktik tayyorgarlikning o‘shishini nazorat qilish qobiliyatida, mashg‘ulot yuklamalarining dinamikasi va yo‘naltirilganligida namoyon bo‘ladi, bu esa o‘smirlar kriketi sohasida maqsadli maxsus tayyorgarlik kompleksini ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kriket bo‘yicha 15-16 yoshli o‘smir boulerlar o‘rtasida to‘p uloqtirish texnikasini takomillashtirishni o‘rganish bo‘yicha pedagogik tadqiqot davomida olingan ilmiy ma‘lumotlarga asoslanib:

pedagogik eksperiment qatnashchilari mashg‘ulot jarayonini pedagogik kuzatuv va video tahlil qilish usullari yordamida to‘pni uloqtirish texnikasining tarkibiy komponentlari aniqlandi, jumladan: to‘pni ushlab, yugurish, oldingi oyoqdan depsinish, uchish fazasi, orqa oyoqqa qo‘nish, oldingi oyoqni oldinga chiqarish, o‘qalish (uloqtirishga tayyorgarlik), to‘pni qo‘yib yuborish, harakatni tugatish (27-avgust 2024-yildagi 03-16/8440 O‘zbekiston Respublikasi sport vazirligining ma‘lumotnomasi). Natijada, tuzilmaviy komponentlar va sportchilar tomonidan qo‘llaniladigan to‘pni uloqtirish texnikasining turli uslublariga asoslangan bouling (to‘p uloqtirish) texnikasining tasnifi ishlab chiqildi;

o‘smir boulerlarda to‘p uloqtirish texnikasini baholash uchun “A’lo”, “Yaxshi” va “Yomon” baholash mezonlariga ega sinov testlari ishlab chiqildi va pedagogik eksperiment boshida va oxirida qo‘llanildi (27-avgust 2024-yildagi 03-16/8440 O‘zbekiston Respublikasi sport vazirligining ma‘lumotnomasi). Natijada to‘p uloqtirish texnikasini baholash imkoniyati quyidagi ishlab chiqilgan testlar orqali 24,16% kengaytirildi: to‘pni ushlab texnikasini namoyish qilish, 80 sm. kenglikdagi yo‘lak bo‘ylab yugurish, yugurib kelib uzunlikka sakrash, uchish fazasida tana muvozanatini saqlash, skameykadan sakrab orqa oyoqqa qo‘nish, oldinga qadam tashlab to‘p uloqtirish, “quruq” o‘qalish, to‘pni nishonga uloqtirish;

O‘zbekiston Kriket Federatsiyasining “ANFA Cricket Club” kriket jamoasining o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga ishlab chiqilgan yillik eksperimental mashg‘ulot dasturi joriy etildi (27-avgust 2024-yildagi 03-16/8440 O‘zbekiston Respublikasi sport vazirligining ma‘lumotnomasi). Natijada, O‘zbekiston Kriket Federatsiyasining “ANFA Cricket Club” jamoasi yosh boulerlarining to‘p uloqtirish texnikasi, aynan to‘p uloqtirish texnikasining tuzilmaviy komponentlarini bajarilishi 15,21% ga yaxshilandi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqotining natijalari 2 ta respublika ilmiy-amaliy va 2 ta xalqaro ilmy-amaliy konferensiyalarida ma‘ruza qilingan va muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarini e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 7 ta ilmiy maqola va tezislari jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya

komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan davriy ilmiy jurnallarida 3 ta maqola (2 ta respublika, 1 ta xorijiy jurnalda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi 115 betdan iborat kompyuter matnida bayon qilingan bo'lib, kirish, to'rtta bob, boblar bo'yicha xotimalar, xulosalar, amaliy tavsiyalar, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya 14 ta jadval, 8 ta rasm va 3 joriy etish dalolatnomalarini o'z ichiga olgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mazkur dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi asoslangan, tadqiqotning respublikadagi ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanish ustuvor yo'nalishlari bilan muvofiqligi, muammoning o'rganilish darajasi, tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy o'quv yurtining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini joriy etish to'g'risida, nashrlar, dissertatsiya hajmi va tuzilishi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Turli sport turlarida to'p uloqtirish texnikasini takomillashtirish masalasining ilmiy-metodik adabiyoti va o'rganilganlik darajasi tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida to'p uzatish texnikasini takomillashtirish masalasining ilmiy-metodik adabiyoti va o'rganilganlik darajasi tahlil qilinib, dissertatsiya mavzusiga yaqin bo'lgan mahalliy va xorijiy mualliflar tadqiqotlari ko'rib chiqilgan, to'p uzatishda mashg'ulotlarning oqilona tashkil etilishidagi muammolar va qiyinchiliklar yoritilgan, 15-16 yoshli o'smir boulerlarning kriketda to'p uloqtirish texnikasi bilan bog'liq mashqlarning muammolari va yechimlari o'rganilgan. Kriketning O'zbekiston Respublikasidagi rivojlanish holati, muammolari va ularning yechimlari, O'zbekiston Kriket Federatsiyasining tashkil etilishi tarixi, kriket bo'yicha bir qator musobaqalarni o'tkazish tarixi, kriket bo'yicha murabbiy va mutaxassislarni tayyorlash tarixi o'rganilgan. To'p uloqtirish texnikasining tuzilmaviy komponentlari, to'p uzatishning asosiy turlari o'rganilgan. 15-16 yoshli o'smir boulerlarning kriketda jismoniy rivojlanish xususiyatlari va tayyorgarlik darajasi umumlashtirilgan. Bouling bilan bog'liq jismoniy xususiyatlar, antropometrik ma'lumotlarning ahamiyati, to'p uloqtirish texnikasini bajarishda bouler qo'lining uzunligi va yuqori tana qismi mushaklarining rivojlanganligining asosiy roli o'rganilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot usullari va tashkil etilishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida qo'llangan usullar, ya'ni jamoaviy o'yin sport turlarida tadqiqotlarga bag'ishlangan ilmiy va ilmiy-metodik materiallarni ko'rib chiqish, tahlil qilish va muhokama qilish, to'p uloqtirish texnikasiga o'xshash texnik-taktik harakatlar prinsipi, xorijiy olimlar tadqiqotlari natijalari bo'yicha xulosalar, dissertatsiya mavzusiga yaqin va o'xshash tavsiyalarning mahalliy va xorijiy mutaxassislar tomonidan adekvatligi tahlili. Mashg'ulot rejalari va dasturlarining tahlili va ularning mashg'ulotlar va musobaqalarda o'yinchilarning natijadorlik darajasi bilan bog'liqligi, o'quv-mashg'ulot hujjatlari bo'yicha mashg'ulot dasturining tuzilishi

o'rganilgan. To'p uloqtirish texnikasini baholash uchun sinov testlar o'tkazilgan. Mashg'ulot va musobaqa faoliyatining taqqoslash tahlili. Natijalarning o'sish dinamikasini o'rganilgan. Eksperimental va nazorat guruhlarida pedagogik kuzatuv olib borilgan. Pedagogik eksperiment, yurak qisqarish va nafas olish chastotasi ko'rsatkichlarini baholashning fiziologik usullari, ma'lumotlarning matematik va statistik ishlovi usullari qo'llanilgan.

Pedagogik eksperiment bir necha bosqichda tashkil etildi va o'tkazildi:

Boshlang'ich bosqichda (2021-2022-yillari) dissertatsiya mavzusi va unga tegishli fanlar bo'yicha adabiyotlar tizimli tahlil qilindi, o'smirlar kriketi bo'yicha dasturiy hujjatlar va o'smir kriketchilarning jismoniy tayyorgarlik testlari bayonnomalari o'rganildi. O'zbekiston, Angliya va Hindistondagi musobaqalar tahlil qilindi. "Barlos" va "ANFA Cricket Club" jamoalari murabbiylari va sportchilari bilan suhbatlar o'tkazildi. Natijalar, tadqiqot maqsadlari, vazifalari va yo'nalishlarini aniqlashtirish, shuningdek, mavzuning nazariy va amaliy ahamiyati bo'yicha takliflar berish imkonini berdi. Toshkentda o'tkazilgan sportchilarning jismoniy rivojlanishini baholash o'smir boulerlarning texnika-taktik qobiliyatlarini aniqladi.

Ikkinchi bosqichda (2022-2023-yillari) eksperimental mashg'ulot dasturi joriy etildi, va 2023-yil iyun oyida pedagogik eksperimentda ishtirok etgan jamoalar kriketning "T20" formati bo'yicha O'zbekiston chempionatida uchinchi o'rinni egalladi. 2023-yil oxirigacha eksperimental mashg'ulot dasturi takomillashtirildi va kriket jamoalarining o'quv-mashg'ulot jarayoniga joriy etildi.


Uchinchi bosqichda (2023-2024-yillari) o'smir boulerlarning to'p uzatish texnikasini baholash bo'yicha testlar natijalari qiyosiy tahlili asosida dasturning samaradorligi tahlil qilindi.

Yakuniy bosqich ma'lumotlarni umumlashtirish, ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalarni shakllantirish, tadqiqotlarning asoslanganligini tasdiqlash va natijalarni sport amaliyotiga joriy etishni o'z ichiga oldi.

Pedagogik testlarni o'tkazish uchun 30 ishtirokchidan ikki kriket jamoasi "Barlos" va "ANFA Cricket Club"dan 15-16 yoshli 15 nafardan ishtirokchi tanlab olindi. 30 ishtirokchining vazifasi to'p uzatish texnikasini baholash bo'yicha sinov testlarni 6 imkoniyatdan necha marta muvaffaqiyatli bajarishdan iborat edi (muallif tomonidan ishlab chiqilgan testlar).

Shunday qilib, ishtirokchilar tajriba guruhiga $n=15$ (keyinchalik TG) va nazorat guruhiga $n=15$ (keyinchalik NG) bo'lindi.

Dissertatsiyaning "**15-16 yoshli yosh boulerlar uchun to'p uzatish texnikasini takomillashtirish bo'yicha eksperimental mashg'ulot dasturini ishlab chiqish**" deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqot jarayoni va ma'lumotlarni olish zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda mashg'ulot yuklamalarini tezkor nazorat qilish va mashg'ulot jarayonini o'z vaqtida tuzatish imkonini beradigan jarayon keltirilgan.



1-rasm. Bouling (to‘p uloqtirish) texnikasining klassifikatsiyasi

Bouling (to‘pni uloqtirish) texnikasining klassifikatsiyasi ikkita asosiy guruhga bo‘linadi: bouling (to‘pni uloqtirish) texnikasi harakatlarining tuzilishi; bouling (to‘pni uloqtirish) turlari.

TG va NG sportchilarining to‘p uloqtirish texnikasining dastlabki darajasini baholash uchun tadqiqotlar O‘zbekiston Kriket Federatsiyasining o‘quv-mashg‘ulot bazasida o‘tkazildi, bu yerda TG va NG sportchilari testlarini bajardi. TG va NG sportchilari quyidagi sinov test mashqlarini bajardi: to‘pni ushlash texnikasini namoyish qilish 6 imkoniyatdan necha marta muvaffaqiyatli bajarilgan, 80 sm kenglikdagi yo‘lak bo‘ylab yugurish 6 imkoniyatdan necha marta muvaffaqiyatli bajarilgan, yugurib kelib uzunlikka sakrash 6 imkoniyatdan necha marta muvaffaqiyatli bajarilgan, uchish fazasida tana muvozanatini saqlash 6 imkoniyatdan necha marta muvaffaqiyatli bajarilgan, skameykadan sakrab orqa oyoqqa qo‘nish 6 imkoniyatdan necha marta muvaffaqiyatli bajarilgan, oldingi oyoq bilan oldinga qadam tashlab to‘p uloqtirish 6 imkoniyatdan necha marta muvaffaqiyatli bajarilgan, “quruq” o‘qtalish 6 imkoniyatdan necha marta muvaffaqiyatli bajarilgan.

15-16 yoshdagi o'smir boulerlarning to'pni uloqtirish texnikasini baholash uchun ishlab chiqilgan testlar

Testlar	«A'lo» baho	«Yaxshi» baho	«Yomon» baho
To'pni ushlab texnikasini namoyish qilish	Barmoqlar to'pning choklarini ustida to'g'ri joylashgan, bilak mahkamlangan 6 ta urinishdan 4 marta yoki undan ko'p to'g'ri bajarish	Barmoqlar to'pning choklarini ustida to'g'ri joylashgan, bilak mahkamlangan 6 ta urinishdan 3 marta to'g'ri bajarish	Barmoqlar to'pning choklarini ustida to'g'ri joylashgan, bilak mahkamlangan 6 ta urinishdan 2 marta yoki undan kam to'g'ri bajarish
80 sm. kenglikdagi yo'lakcha bo'ylab yugurib kelishni bajarish	6 ta urinishdan 4 marta yoki undan ko'p	6 ta urinishdan 3 marta to'g'ri bajarish	6 ta urinishdan 2 marta yoki undan kam to'g'ri bajarish
Bir oyoqdan depsinib yugurib uzunlikka sakrash	Oldi oyoqdan kuchli depsinish, oyoqni va tanani to'liq tekislashtirish 6 ta urinishdan 4 marta yoki undan ko'p	Oldi oyoqdan kuchli depsinish, oyoqni va tanani to'liq tekislashtirish 6 ta urinishdan 3 marta to'g'ri bajarish	Oldi oyoqdan kuchli depsinish, oyoqni va tanani to'liq tekislashtirish 6 ta urinishdan 2 marta yoki undan kam to'g'ri bajarish
Uchish fazasida tana muvozanatini saqlash	Sportchi barqaror muvozanatni saqlaydi, tananing to'g'ri holatini namoyish etadi va parvoz fazasida bo'shashgan va boshqariladigan ko'rinadi 6 ta urinishdan 4 marta yoki undan ko'p	Sportchi barqaror muvozanatni saqlaydi, tananing to'g'ri holatini namoyish etadi va parvoz fazasida bo'shashgan va boshqariladigan ko'rinadi 6 ta urinishdan 3 marta to'g'ri bajarish	Sportchi barqaror muvozanatni saqlaydi, tananing to'g'ri holatini namoyish etadi va parvoz fazasida bo'shashgan va boshqariladigan ko'rinadi 6 ta urinishdan 2 marta yoki undan kam to'g'ri bajarish
“Orqa” oyoqqa qo'nish bilan inmassik o'rindiqdan sakrash	Oyoq uchiga yumshoq qo'nish, tizzada oyoqni bukish, muvozanatni saqlash 6 ta urinishdan 4 marta yoki undan ko'p	Oyoq uchiga yumshoq qo'nish, tizzada oyoqni bukish, muvozanatni saqlash 6 ta urinishdan 3 marta to'g'ri bajarish	Oyoq uchiga yumshoq qo'nish, tizzada oyoqni bukish, muvozanatni saqlash 6 ta urinishdan 2 marta va undan kam to'g'ri bajarish
Oldinga qadam tashlab to'pni uloqtirish	Qo'nishdan so'ng old oyoqni bir tekisda chiqarish, muvozanatni saqlash, boshqariladigan harakatni tugatish 6 ta urinishdan 4 marta yoki undan ko'p	Qo'nishdan so'ng old oyoqni bir tekisda chiqarish, muvozanatni saqlash, boshqariladigan harakatni tugatish 6 ta urinishdan 3 marta to'g'ri bajarish	Qo'nishdan so'ng old oyoqni bir tekisda chiqarish, muvozanatni saqlash, boshqariladigan harakatni tugatish 6 ta urinishdan 2 marta va undan kam to'g'ri bajarish
“Quruq” o'qitalish	Yetarli balandlik va tezlik bilan ravon o'qitalish, qo'l va tananing to'g'ri joylashuvi. 6 ta urinishdan 4 marta yoki undan ko'p	Yetarli balandlik va tezlik bilan ravon o'qitalish, qo'l va tananing to'g'ri joylashuvi. 6 ta urinishdan 3 marta to'g'ri bajarish	Yetarli balandlik va tezlik bilan ravon o'qitalish, qo'l va tananing to'g'ri joylashuvi. 2 раза и менее из 6 попыток
To'pni nishonga qarata chiqarish	4 marta yoki undan ko'p 6 ta urinishdan nishonga aniq tekizish, qo'l, bilak va barmoqlarning to'pni hiqarishda to'g'ri joylashuvi	6 martadan 3 marta to'pni nishonga aniq tekizish, to'pni chiqarish texnikasining oz-moz buzilishi	6 martadan 2 marta va undan kam to'pni nishonga aniq tekizish, to'pni chiqarish texnikasining sezilarli buzilishi
Yurishga o'tish bilan to'pni uloqtirish	Harakatni ravon yakunlash, muvozanatni saqlash, turishga boshqariladigan o'tish. 6 ta urinishdan 4 marta yoki undan ko'p	Harakatni ravon yakunlash, muvozanatni saqlash, turishga boshqariladigan o'tish. 6 ta urinishdan 3 marta to'g'ri bajarish	Harakatni ravon yakunlash, muvozanatni saqlash, turishga boshqariladigan o'tish. 6 ta urinishdan 2 marta va undan kam to'g'ri bajarish

Pedagogik eksperiment boshida 15-16 yoshli nazorat guruhi yosh boulerlarning to‘pni uloqtirish texnikasini baholash ko‘rsatkichlarining testlari natijalarining statistik xarakteristikalarini (n=15)

Teslar (6 imkoniyatdan muvaffaqiyatli urinishlar soni)	\bar{X}	σ	V%
To‘pni ushlab texnikasini namoyish qilish	2,67	0,49	18,30
80 sm kenglikdagi yo‘lak bo‘ylab yugurish	2,27	0,46	20,19
Yugurib kelib bir oyoq bilan depsingan holda uzunlikka sakrash	2,53	0,52	20,38
Uchish fazasida tananing muvozanatini saqlash	2,80	0,56	20,02
Gimnastik o‘rindiqdan sakrab “orqa” oyoqqa qo‘nish	2,87	0,64	22,32
Oldingi oyoq bilan oldinga qadam tashlab to‘pni uloqtirish	2,93	0,59	20,24
«Quruq» o‘qtalish	2,47	0,52	20,94
To‘pni nishonga uloqtirish	2,20	0,41	18,82
To‘pni uloqtirishdan yurishga o‘tish	2,87	0,52	18,01

Izoh: \bar{X} - ko‘rsatkichlarning o‘rtacha arifmetik qiymati; σ - standart og‘ish; V% - variatsiya koeffitsiyenti.

“To‘pni ushlab texnikasini namoyish qilish” testi natijalarining o‘rtacha qiymati, standart og‘ishlari va variatsiya koeffitsiyenti: $2,67 \pm 0,49$ va $V\% = 18,30$. O‘rtacha natija ishtirokchilarning olti imkoniyatdan uch martadan kamroq muvaffaqiyatli to‘p ushlab texnikasini bajarishini ko‘rsatadi. Standart og‘ish ishtirokchilarning mahoratlarida katta o‘zgaruvchanlik borligini ko‘rsatadi, bu tayyorgarlik darajasining turli darajalari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

“80 sm. kenglikdagi yo‘lak bo‘ylab yugurish” testi natijalarining o‘rtacha qiymati, standart og‘ishlari va variatsiya koeffitsiyenti: $2,27 \pm 0,46$ va $V\% = 20,19$. O‘rtacha natija ham past bo‘lib, ko‘pchilik ishtirokchilar uchun ushbu mashqni bajarishda qiyinchiliklar mavjudligini ko‘rsatadi. Standart og‘ish natijalarining o‘rtacha o‘zgaruvchanligini ko‘rsatadi.

“Yugurib kelib bir oyoq bilan depsingan holda uzunlikka sakrash” testi natijalarining o‘rtacha qiymati, standart og‘ishlari va variatsiya koeffitsiyenti: $2,53 \pm 0,52$ va $V\% = 20,38$. Bu test natijalari ishtirokchilarning mahorat darajasining pastligini ko‘rsatadi. Natijalarining o‘zgaruvchanligi ba‘zi ishtirokchilar boshqalarga qaraganda vazifani ancha yaxshiroq bajarayotganini ko‘rsatadi.

“Uchish fazasida tananing muvozanatini saqlash” testi natijalarining o‘rtacha qiymati, standart og‘ishlari va variatsiya koeffitsiyenti: $2,80 \pm 0,56$ va $V\% = 20,02$. Ishtirokchilar bu testda past natijalar ko‘rsatdilar, bu harakatda tanani koordinatsiya va nazorat qilishning yetishmasligini ko‘rsatadi. Natijalarining o‘zgaruvchanligi past bo‘lib, barcha ishtirokchilarning tayyorgarlik darajasi bir xil past ekanligini ko‘rsatishi mumkin.

“Gimnastik o‘rindiqdan sakrab “orqa” oyoqqa qo‘nish” testi natijalarining o‘rtacha qiymati, standart og‘ishlari va variatsiya koeffitsiyenti: $2,87 \pm 0,64$ va

V%=22,32. Natijalar ko'pchilik ishtirokchilar uchun ushbu mashqni bajarishda qiyinchiliklar mavjudligini ko'rsatadi, bu yetarli kuchli tayyorgarlik yoki texnika bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

“Oldingi oyoq bilan oldinga qadam tashlab to'pni uloqtirish” testi natijalarining o'rtacha qiymati, standart og'ishlari va variatsiya koefitsiyenti: $2,93 \pm 0,59$ va $V\% = 20,24$. Juda past natijalar to'p uloqtirish texnikasini yaxshilash zarurligini ko'rsatadi. Natijalarning o'rtacha o'zgaruvchanligi ishtirokchilarning tayyorgarlik darajasi bir xil past ekanligini ko'rsatishi mumkin.

“«Quruq» o'qtalish” testi natijalarining o'rtacha qiymati, standart og'ishlari va variatsiya koefitsiyenti: $2,47 \pm 0,52$ va $V\% = 20,94$. O'rtacha natija va natijalarning yuqori o'zgaruvchanligi ba'zi ishtirokchilar bu testni boshqalarga qaraganda ancha yaxshiroq bajarayotganini ko'rsatadi.

“To'pni nishonga uloqtirish” testi natijalarining o'rtacha qiymati, standart og'ishlari va variatsiya koefitsiyenti: $2,20 \pm 0,41$ va $V\% = 18,82$. Natijalar aniqlik va to'pni chiqarish texnikasi bilan bog'liq umumiy qiyinchiliklarni ko'rsatadi. Natijalarning o'rtacha o'zgaruvchanligi ishtirokchilarning tayyorgarlik darajasi farqini ko'rsatishi mumkin.

“To'pni uloqtirishdan yurishga o'tish” testi natijalarining o'rtacha qiymati, standart og'ishlari va variatsiya koefitsiyenti: $2,87 \pm 0,52$ va $V\% = 18,01$. Past natijalar barcha ishtirokchilar uchun bu mashqni bajarishda qiyinchiliklar mavjudligini ko'rsatadi. Kichik standart og'ish bu testni bajarishda barcha ishtirokchilarning bir xil past darajada ekanligini ko'rsatadi. (2-jadvalga qarang)

Tajriba guruhda pedagogik eksperiment boshida sinov testlar o'tkazilgandan keyin olingan natijalarning o'rtacha qiymati va standart og'ishlari quyida keltiriladi.

3-jadval

Pedagogik eksperiment boshida 15-16 yoshli tajriba guruhi yosh boulerlarning to'pni uloqtirish texnikasini baholash ko'rsatkichlarining testlari natijalarining statistik xarakteristikalari (n=15)

Teslar (6 imkoniyatdan muvaffaqiyatli urinishlar soni)	\bar{x}	σ	V%
To'pni ushlash texnikasini namoyish qilish	2,40	0,51	21,13
80 sm kenglikdagi yo'lak bo'ylab yugurish	2,60	0,51	19,50
Yugurib kelib bir oyoq bilan depsingan holda uzunlikka sakrash	2,67	0,49	18,30
Uchish fazasida tananing muvozanatini saqlash	2,33	0,49	20,91
Gimnastik o'rindiqdan sakrab “orqa” oyoqqa qo'nish	2,67	0,49	18,30
Oldingi oyoq bilan oldinga qadam tashlab to'pni uloqtirish	2,53	0,52	20,38
«Quruq» o'qtalish	2,73	0,59	21,72
To'pni nishonga uloqtirish	2,60	0,51	19,50
To'pni uloqtirishdan yurishga o'tish	2,47	0,52	20,94

Izoh: \bar{X} - ko'rsatkichlarning o'rtacha arifmetik qiymati; σ - standart og'ish; V% - variatsiya koefitsiyenti.

“To‘pni ushlab texnikasini namoyish qilish” testi natijalarining o‘rtacha qiymati, standart og‘ishlari va variatsiya koefitsiyenti: $2,40 \pm 0,51$ va $V\% = 21,13$.

O‘rtacha natija ishtirokchilarning olti imkoniyatdan taxminan ikki marta muvaffaqiyatli to‘p ushlab texnikasini bajarganligini ko‘rsatadi. Kichik standart og‘ish ishtirokchilarning mahoratlarida o‘rtacha o‘zgaruvchanlik borligini ko‘rsatadi.

“80 sm. kenglikdagi yo‘lak bo‘ylab yugurish” testi natijalarining o‘rtacha qiymati, standart og‘ishlari va variatsiya koefitsiyenti: $2,60 \pm 0,51$ va $V\% = 19,50$. O‘rtacha natija past bo‘lib, ko‘pchilik ishtirokchilar uchun ushbu mashqni bajarishda qiyinchiliklar mavjudligini ko‘rsatadi. Kichik standart og‘ish ishtirokchilarning tayyorgarlik darajasi nisbatan barqaror ekanligini ko‘rsatadi.

“Yugurib kelib bir oyoq bilan deysingan holda uzunlikka sakrash” testi natijalarining o‘rtacha qiymati, standart og‘ishlari va variatsiya koefitsiyenti: $2,67 \pm 0,49$ va $V\% = 18,30$. O‘rtacha natijalar ishtirokchilarning o‘rtacha mahoratga ega ekanligini ko‘rsatadi. Natijalarning o‘zgaruvchanligi ba‘zi ishtirokchilar boshqalarga qaraganda vazifani ancha yaxshiroq bajarayotganini ko‘rsatadi.

“Uchish fazasida tananing muvozanatini saqlash” testi natijalarining o‘rtacha qiymati, standart og‘ishlari va variatsiya koefitsiyenti: $2,33 \pm 0,49$ va $V\% = 20,91$. Ishtirokchilar bu testda o‘rtacha yuqori natijalar ko‘rsatdilar, bu harakatda tanani koordinatsiya va nazorat qilishning yaxshi ekanligini ko‘rsatadi. Natijalarning o‘zgaruvchanligi o‘rtacha.

“Gimnastik o‘rindiqdan sakrab “orqa” oyoqqa qo‘nish” testi natijalarining o‘rtacha qiymati, standart og‘ishlari va variatsiya koefitsiyenti: $2,67 \pm 0,49$ va $V\% = 18,30$. Natijalar ko‘pchilik ishtirokchilar uchun ushbu mashqni bajarishda qiyinchiliklar mavjudligini ko‘rsatadi, bu yetarli kuchli tayyorgarlik yoki texnika bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

“Oldingi oyoq bilan oldinga qadam tashlab to‘pni uloqtirish” testi natijalarining o‘rtacha qiymati, standart og‘ishlari va variatsiya koefitsiyenti: $2,53 \pm 0,52$ va $V\% = 20,38$. O‘rtacha natijalar to‘p uzatish texnikasini yaxshilash zarurligini ko‘rsatadi. Natijalarning o‘zgaruvchanligi o‘rtacha, bu ishtirokchilarning tayyorgarlik darajasi turlicha ekanligini ko‘rsatishi mumkin.


